

## OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING SAMARADORLIK DARAJASI

**Xudoyqulova Sevara Yorqul qizi**

**Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil tadqiqotchisi**

**[sevara01011990@gmail.com](mailto:sevara01011990@gmail.com)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21451149>

**Annotatsiya:** Oliy ta'limda xorijiy tillarni o'qitish samaradorligini oshirish innovatsion pedagogik texnologiyalar va kommunikativ yondashuvlarni talab qiladi. An'anaviy yodlash usullaridan farqli o'laroq, zamonaviy tizim talabaning o'zaro muloqot va amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayon talabalarning kasbiy kompetensiyasini (mutaxassislik bo'yicha bilim va malakani) yuqori bosqichga ko'taradi.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy texnologiyalar, o'qitish usullari, raqamli vositalar, darsliklar, o'yinlashtirish, talabalarning ishtiroki.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga oid qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligining “2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida” [1] O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan Xalq ta'limi sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi uchun ajratiladigan mablag'lar hisobidan Agentlikning budjetdan tashqari jamg'armasiga bir martalik 15,0 mlrd so'm miqdoridagi moliyaviy ko'mak mablag'larini ajratish to'g'risidagi yondoshuv muhim ahamiyatga ega.

Ta'kidlash joizki, Jamg'armaga Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar quyidagi maqsadlarda foydalanilishi nazarda tutiladi. Ular:

- dunyo bo'yicha samarali natija bergan o'qitish metodikalari, dastur va darsliklarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari va o'quv markazlarida joriy etish;
- xorijiy davlatlarda chop etiladigan zamonaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarni, xalqaro testlar va ularni joriy qilish uchun tegishli ruxsatnoma va litsenziyalar, xorijiy tillarni o'rgatishga qaratilgan kontentlarni mualliflik huquqlarini xarid qilish;
- xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, dasturiy ta'minot loyihalarini ishlab chiqish va joriy etish;
- xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish, tilning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun videorolik, o'yin, ko'ngilochar ko'rsatuv, filmlar va boshqa o'rgatuvchi kontent yaratish;
- fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida yuqori malakali mutaxassislarni, shu jumladan mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb etish;

Agentlik balansidagi bino va inshootlarni saqlash, ulardan foydalanish, qurish va ta'mirlash, zarur anjomlar, shu jumladan mebel, aloqa, kompyuterlar va boshqa vositalar bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirish.

Vazirlar Mahkamasining “Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2021-yil 19-maydagi 312-son qaroriga muvofiq [3] Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan har yili tuman (shahar)dagi maktablarni xorijiy tillarni o'qitish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar, asbob-

uskunalar, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar ko'lamini yana kengaytirishni taqozo etadi. Jumladan:

- uzluksiz ta'lim tizimida chet tilini o'qitishning o'quv-metodik majmualarini o'quvchilarning asosiy til ko'nikmalarini (tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish) shakllantirish nuqtayi nazaridan to'liq qayta ko'rib chiqish;

- malakali mutaxassislarni jalb etgan holda 2022-yil 1-martdan boshlab chet tili fani o'qituvchilarining tinglab tushunish, o'qish, yozish hamda gapirish kompetensiyalarini rivojlantirishga hamda sertifikatga ega bo'lishlariga yo'naltirilgan o'quv kurslarini tashkil etish.

- umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari uchun zamonaviy til o'rgatish metodikalari asosida ishlab chiqilgan chet tili darsliklarini to'liq chop etish va ta'lim tashkilotlariga yetkazish choralarini ko'rsin;

- yangi darsliklardan foydalanish metodikalari bo'yicha o'qituvchilar va metodistlar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022/2023 o'quv yili qabulidan boshlab xorijiy tillar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashga ixtisoslashgan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga hamda Toshkent davlat pedagogika universiteti, Qo'qon davlat pedagogika va Nukus davlat pedagogika institutlarining xorijiy tillar bo'yicha pedagoglarni tayyorlovchi bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirish imtihonlarida fanlar majmuasidagi chet tili fanidan tinglab tushunish, o'qish, yozish hamda gapirish kompetensiyalarini aniqlash va baholashga qaratilgan kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkazib kelinmoqda.

Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlarini tatbiq qilish chora-tadbirlari to'g'risida” 2019-yil 13-maydagi 395-son qarori [2] bilan belgilangan Davlat test markazi tomonidan beriladigan chet tilini bilish darajasi to'g'risidagi sertifikat yoki xalqaro tan olingan sertifikatning tegishli darajalariga ega bo'lgan abituriyentlarga o'qishga kirish sinovlarida berilgan imtiyozlar saqlab qolinmoqda. Chet tili fanidan kasbiy (ijodiy) kirish imtihonlari Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan amalga oshirilib kelmoqda. Bilim va malakalarni baholash agentligi bilan birgalikda ikki oy muddatda 2025/2026 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari uchun belgilangan majburiy fanlar majmuasiga chet tili fanini kiritish yuzasidan kiritilgan taklif asosida ishlar amalga oshirilmoqda.

2023-yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional, shuningdek, maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari chet (ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk, fors, pushtu, dari, urdu hind) tili fani o'qituvchilarining attestatsiyasi jarayonida o'quv fani bo'yicha malaka sinovlari tinglab tushunish, o'qish, yozish hamda gapirish ko'nikmalarini baholashni nazarda tutuvchi kasbiy sinov shaklida o'tkazib kelinishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, mamlakat ta'lim tizimida xalqaro tan olingan baholash tashkilotlari bilan hamkorlikda pedagog kadrning malaka toifasini olish bo'yicha chet tili fani o'qituvchilarining malaka sinovlarida tinglab tushunish, o'qish, yozish hamda gapirish kompetensiyalarini baholash tizimi ishlab chiqildi.

Xorijiy tillarni bilish va xorijiy til o'qituvchilarining malaka va ko'nikmalarini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarning Yagona elektron bazasi ishlab chiqilgani va amaliyotga joriy etilgani amalga oshirilgan islohotlar sirasiga kiradi. Ushbu islohotlar qatorida 2022-yil 1-fevraldan boshlab maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining C1 darajadagi milliy yoki

unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro tan olingan sertifikatga ega rus tili fani o'qituvchilariga sertifikat olingan kundan boshlab uch yil davomida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ustama to'lash tartibi ham joriy etildi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, so'ngi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlar tufayli chet elda ta'lim olayotgan va mehnat faoliyatini olib borayotgan yigit-qizlarimiz safi yildan-yilga kengaymoqda. Ularning dunyoning eng nufuzli oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgani, “Google”, “Tesla”, “WallMart” kabi multinatsional korporatsiyalarda, yirik moliya, bank va boshqa sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgani, yuqoridagi qayd etilgan islohotlar natijasi sanaladi. Mazkur yutuqlarning zamirida katta mehnat va til bilish ko'nikmalari yotibdi. Xalqimizda til bilgan el biladi, deb bejizga aytishmagan. Shu sababli mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi “Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 34-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi “Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlarini tatbiq qilish chora-tadbirlari to'g'risida” 395-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi “Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 312-son qarori.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). Approaches and Methods in Language Teaching.